

MA'RIFATPARVAR JADIDLARNING MILLIY TARAQQIYOT UCHUN AHAMIYATI

Hasanova Xayrixon Fazlidinxonovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolaning mazmunida yurtimiz tarixidagi vatanparvarlik ruhiyatini tushunishda Turkiston jadidlari ma'rifatparvarlik g'oyalarining o'rni va roli bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Ilm-fan, ma'rifat, ma'rifatparvar, jadid, jadidchilik g'oyalari, milliy taraqqiyot, o'quvchi yoshlar, Vatan, vatanparvarlik, tarbiya, tarix, milliylik, milliy taraqqiyot.

KIRISH

O'zbek milliy davlatchilik tarixida XIX asr oxiri va XX asr boshlari xalqimizning tarixiy taqdirida muhim ahamiyatga molik bo'lgan davrdir. Ushbu davr tarixan qisqa vaqtni tashkil etgan bo'lsa-da, ammo shu davrda vujudga kelgan jadidchilik ma'rifatparvarlik harakati maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san'at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshiribgina qolmay, xalqimizning madaniy, ma'rifiy hayotini butunlay o'zgartirib yubordi yoki shu yo'lda e'tiborga molik kattaishlarni amalga oshirdi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Turkiston o'lkasi XIX asr oxiri - XX asr boshlarida mustamlakachilik siyosati oqibatida siyosiy, madaniy, iqtisodiy tanazzulga yuz tutdi. O'lkaning ilg'or ziyolilari chorizm istibdodidan qutulish, millatni uyg'otish, nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot sari yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish maqsadida ma'rifatparvarlik harakatiga asos soldilar [1]. Shunday ekan biz tanlagan "Mustaqillik sharoitida o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda Turkiston jadidlari ma'rifatparvarlik g'oyalarining o'rni va roli" mavzusi bugungi kun uchun eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bu harakat bilan Turkistonda yangi uyg'onish davri boshlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mustaqillik yillarida yurtimiz o'quvchi yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning ongi va tafakkurida Ona vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni uyg'otish, mustaqilligimizni mustahkamlash borasida Turkiston jadidchilik harakati vauning ma'naviy-ma'rifiy asoslarining mohiyati, jadidlarning xalq tafakkurini o'stirish, jumladan, yoshlarning ma'naviyatini boyitish yo'lida olib borgan kurashlari, jadidchilik g'oyalarining Turkistonga tarqalishida milliy matbuot, badiiy adabiyot va teatrning ahamiyati va ularning ijodida Milliy istiqlol g'oyasining ifodalanishidagi o'ziga xosliklari o'rganila boshlandi. Prezidentimiz aytganlaridek, "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi" deb ayni xaqiqatni aytib o'tgan edilar. Tarixiy taraqqiyot jarayonidan shu narsa yaxshi ma'lumki har qanday jamiyat va inson hayotining birmaromda kechishi,

ertami-kechmi, tanazzulga olib boradi. Shuning uchun ham Turkistonlik jadidchilik harakatining ilg'or vakillari, xalqimizning peshqadam ziyolilari o'sha davr jamiyat

hayotida kecha boshlagan tanazzulga qarshi kurashish yoki uning oldini olish uchun yangi g'oyalarni "ishlab chiqishgan".

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga e'tibor bersak, marifatparvarlik mafkurasi demokratik va milliy-vatanparvarlik harakatlarining g'oyaviy mazmunini tashkil etganligini ko'ramiz [2]. Mamlakatimizda marifatparvarlik g'oyasining kelib chiqishiga asosiy sabab, birinchidan, rus istilochilik siyosatining chuqurlashib borishi natijasida paydo bo'lgan milliy ozodlik harakatlari; ikkinchidan, g'arbdan kirib kelayotgan demokratik harakatlarning istilochilar tomonidan bo'g'ib qo'yilishi; uchinchidan, millatparvar - fidoiy kishilarning qattiq ta'qib ostiga olinganligi va hatto ularning qatl etila boshlaganligi edi.

Turkistonda jadidlar "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar", "Yosh turkistonliklar" degan nomlarda faoliyat olib borishgan.

Jadidchilik harakati qoloqlik va jaholat, o'lka aholisining ayanchli ahvoli, Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi, islom va shariatning oyoq osti qilinishi va bunday og'ir hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish uchun o'z zamonasining ilg'or ziyoli qatlamlari qarashlarida vujudga keldi. Jaholat uyqusidan uyg'onish, tarixiy zaruratga aylangan edi. Boshqacha qilib aytganda, jadidchilik harakati ijtimoiy rivojlantirishning, tarixiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlariga javob sifatida maydonga kelgan ulkan ijtimoiy-siyosiy harakat edi. O'lkada millatning dard-alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali og'ir qismatini o'z qalbi va vujudidan o'tkazib, o'zining butun borlig'ini, aql-zakovatini, ongini, hayotini erk, ozodlik, taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllana boshladi. Jadidchilikning asosiy g'oya vamaqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish va hokazolardan iborat edi.

Turkiston jadidchilik harakati ba'zi bir tarixga oid adabiyotlarda aytilganidek, "oldin madaniy-ma'rifiy harakat bo'lib, keyin ijtimoiy-siyosiy harakatga o'sib o'tgani" yo'q. U o'z tabiati maqsad va mohiyatiga ko'ra, dastlabki kundanoq, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy va islohotchilik harakati bo'lgan [5].

Turkiston jadidchilik harakatining paydo bo'lib, rivojlanishida qrimlik Ismoilbek Gaspiralin (1851-1914) hissasi behad katta bo'ldi. U Qrimda XIX asrning 80-yillardayoq, Rossiya bosib olgan musulmon xalqlari orasida birinchi bo'lib jadidchilikka asos soldi. Uning rus va turkiy tillarda chop etilgan "Tarjimon" (1883-1914) gazetasi, "Rossiya musulmonligi" (1881), "Ovropa madaniyatiga bir nazar muvozzini" (1885) va boshqa asarlari hamda jadid maktabi uchun yozgan darslik va qo'llanmalari Turkistonga tez kirib keldi. Jadidchilik g'oyasi Turkistonda XIX asr 80-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab tarqalib, shu asrning 90 XX asrning boshlari oralig'ida muntazam ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy harakat sifatida shakllandi.

Jadid maktabida diniy va dunyoviy ta'lim-tarbiya hamda ilm o'zaro uyg'unlashtirildi. Bolalar qulay partalarda o'tirib, xarita va rasmlar yordamida tez savod chiqardi va diniy-dunyoviy ilmlarni o'rgandi. Jadid maktablarida Qur'oni Karim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o'qitila boshlandi.

Turkistonda jadidchilik harakati uch soha orqali faoliyat ko'rsatdi. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot.

Asosiy maqsad millatni, bir tomondan, ilm-ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida, o'zligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston jadidchilari tomonidan ana shu maqsadnamalga oshirish yo'lida katta ishlar qilindi.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1929) – O'rta Osiyo jadidchilik harakatining yo'l boshchisi. XX asr o'zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi maktab asoschisi, milliy teatr tashkilotchilaridan biri, adib va shoir edi. U Toshkentda 1901-yilda usuli jadid maktabini ochgan va shu maktablar uchun maxsus o'quv dasturlari tuzgan. Uning “Adibi avval” (1907), “Adib us-soniy” (1907), “Usuli hisob”, “Tarixi qavm turk”, “Tajvid” (1911), “Havoyiji diniya”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islomiya” (1912), “Er yuzi” (1916 - 1917), to'rt qismdan iborat “O'zbekcha til saboqlari” (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilanbirga) darsliklari shular jumlasidandir.

Jadidchilik harakatning yana bir yirik vakili - **Mahmudxo'ja Behbudiy** (1875 - 1919). Uning tashabbusi bilan Samarqanda yangi usul maktablari ochildi. Adib bu maktablar uchun 1904 – 1909-yillarda “Risolai asbobi savod”, “Risolai jug'rofiyai umroniy”, “Risolai jug'rofiyai Rusiy”, “Kitobat ul-atfol”, “Amaliyoti islom”, “Muxtasar tarixi islom” kabi darslik va o'quv qo'llanmalar yozadi.

Abdulla Avloniy (1878-1934) ham jadidchilik harakatining faol ishtirokchilaridan biri bo'lib tanildi. U o'zining zamondosh jadidlari, izdoshlari kabi yangi usul maktablari ochib, ularga o'zi mudarrislik qildi va darsliklar yozdi. Uning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy Guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistoni” singari darslik, “Adabiyot yoxud milliy she'rlar” to'plamlari, ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilariga darslik sifatida yozilgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari (1913-yil) mashhur bo'ldi.

Jadidchilik harakatining Buxorodagi yirik vakillaridan biri - **Abdurauf Fitrat** (1886-1938) [3]. U 1909 yilda Istanbulda nashr etilgan “Munozara” asarida Buxoro amirligi idorasiga ma'lum islohot – o'zgarish kiritish g'oyasi va “Usuli jadid” deb nomlangan yangi maorif tizimining asoslarini ilgari surdi. Fitrat butun vujudi, otash va jo'shqin yuragi bilan, ijodi va faoliyati bilan mamlakat yoshlarini rivojlangan yangi dunyo tomon safarbar etadi.

Ma'rifatchi jadidlar juda og'ir sharoitlarda g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatimiz ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab burilish davrlarida millatning milliy onginiyuksaltirish, milliy iftixor tuyg'usini, kuchaytirish birinchi darajali vazifa, deb bildilar.

Umuman olganda, XIX asr oxiriga kelib mahalliy ziyolilar birinchidan, xalqni ilmi-ma'rifatli qilish orqali milliy ong va tafakkurni uyg'otishga, ikkinchidan, milliy davlatchilikni tiklash, turkiy til birligiga erishish, diniy va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash, uchinchidan, Markaziy Osiyo xalqlarini zamonaviy va demokratik taraqqiyot yo'liga olib kirishga harakat qildilar.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z

zimmalariga oldilar. Mintaqa xalqlarining milliy-ma'naviy manfaatlari hamda qadriyatlarini poymol etildi, ularning hatto, eng oddiy haq-huquqlariga ham mensimaslik kayfiyati bilan qaralib, ular ommaviy ravishda asoratga solindi. Haqiqatda, milliy g'oya, millat tafakkurining eng ilg'or namunalarini aks ettirgan darslik va qo'llanmalar tuzish, xorijiy tillarni mukammal bilish, kasb-hunar o'rgatishni joriy etish kabi tamoyillar o'z davrida jadidchilik vakillarini o'ylantirgan va ularning bu yo'ldagi bevosita sa'y-harakatlarini faoliyatimizning zamonaviy intellektual taraqqiyoti poydevoriga zamin yaratishga xizmat qildi. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan yaratilgan ulkan boy ma'naviy meros bugungi kun o'quvchi yoshlarimizni har tomonlama bilimli, intellektual salohiyatli va barkamol bo'lib shakllanishlarida asosiy rol o'ynaydi. Ular qoldirgan ilmiy meros ming yillar davomida o'zining qadr qimmatini aslo yo'qotmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qosimov B. Ismoilbek Gaspinskiy – T.: Meros. 1992. 34 b
2. Ayni. S. Musulmonlar xayoti Turkiston viloyatining gazetasi. 1906. 16-19 iyul. B- 5
3. Fitrat A. Oila va oilani boshqarish tartiblari. / Ma'sul muharrirlar D.A. Alimova; Tarj. Sh. Voxidov. – T.: Ma'naviyat. 1998. B- 56
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar: 2 t. / Tahrir hay'ati: O. Sharafiddinov va boshq.: Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H. Boltaboev; Mas'ul muharrirlar N. Karimov, - T.: Ma'naviyat. 2000. B- 89.
5. Jadid ma'rifatchilik harakatining g'oyaviy asoslari. – T. "Toshkent islom universiteti". 2016. b – 178.
6. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. - T.: "Ma'naviyat", 2002. B- 304